



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 232 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassisi: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimi: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669363
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari.....	8
Davronov Rustam Ilxomovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari.....	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari.....	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri.....	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi.....	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbanovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot)	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Марупов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	



Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot.....	208
Maxanbetova Dilnoza	
10-sinf kimyo darslarida “Spirtlar” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi	211
Nazarova Yulduz Atamuratovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish	215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz	
Milliy taraqqiyot g‘oyalarida jadid ayollarining o‘rni	220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi	
Mahalla – oila – ta’lim muassasasi hamkorligi	223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek	
Oliy ta’lim muassasalarida “Mikrobiologiya” modulini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari	227
Reymova Erkinay Atabayevna	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Shoxida Botirovna

University of Innovation Technologies assistent o'qituvchisi

Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz

University of Innovation Technologies 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning kommunikativ kompetensiyasini, jamoada ishlash, hamkorlik qilish, muammolarni birgalikda hal etish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar ijodiy o'yinlardan tizimli foydalanish bolalarning o'zaro muloqoti, empatiyasi, tashabbuskorligi, mas'uliyati va jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijtimoiy ko'nikma, ijodiy o'yin, syujetli-rolli o'yin, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiylashuv, tarbiyachi, pedagogik texnologiya, bolalar rivojlanishi, o'yin faoliyati, kreativlik.

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities of creative games in forming social skills in preschool children. The relevance of the research is explained by the need to develop children's communicative competence, teamwork, cooperation, problem-solving, and social adaptation skills in the modern preschool education system. The study utilized methods of scientific literature analysis, pedagogical observation, and comparative analysis. The results proved that the systematic use of creative games has a positive impact on the development of children's communication skills, empathy, initiative, responsibility, and teamwork.

Key words: preschool education, social skills, creative game, role-playing game, cooperation, communicative competence, socialization, educator, pedagogical technology, child development, play activity, creativity.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности творческих игр в формировании социальных навыков у детей дошкольного возраста. Актуальность исследования объясняется необходимостью развития коммуникативной компетенции детей, навыков работы в команде, сотрудничества, совместного решения проблем и социальной адаптации в современной системе дошкольного образования. В ходе исследования использовались методы анализа научной литературы, педагогического наблюдения и сравнительного анализа. Результаты доказали, что систематическое использование творческих игр положительно влияет на развитие у детей навыков общения, эмпатии, инициативности, ответственности и работы в команде.

Ключевые слова: дошкольное образование, социальные навыки, творческая игра, сюжетно-ролевая игра, сотрудничество, коммуникативная компетенция, социализация, воспитатель, педагогические технологии, развитие детей, игровая деятельность, креативность.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi inson shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish madaniyati, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini egallashi hamda jamiyatga moslashuvi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga kompleks tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarda bolalarda tayanch kompetensiyalarni, jumladan, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror va farmonlarida bolalarning har tomon-



lama barkamol rivojlanishini ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish vazifalari belgilab berilgan ^[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish ularning kelajakdagi ta'lim faoliyati, shaxslararo munosabatlari hamda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining muhim omillaridan biridir. Ijtimoiy ko'nikmalar tarkibiga muloqot qilish, tinglash, fikr almashish, muammolarni hamkorlikda hal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning fikrini hurmat qilish va jamoada ishlash kabi kompetensiyalar kiradi.

Mazkur ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri ijodiy o'yinlar hisoblanadi. Ijodiy o'yinlarda bola real hayotdagi turli vaziyatlarni modellashtiradi, ijtimoiy rollarni bajaradi, tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi hamda o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar bolalarda ijtimoiy tajriba orttirish, mas'uliyatni his qilish, o'zaro yordam va hamjihatlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatining ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bolalarning faol ishtirokiga asoslangan o'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholanmoqda. Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan ^[2]. Mazkur dastur pedagoglardan ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijodiy o'yinlar bolalarda ijtimoiy faollikni, tashabbuskorlikni, kommunikativ madaniyatni hamda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy o'yinlarni maqsadli tashkil etish metodikasini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va maktabgacha ta'lim metodikasi yo'nalishlarida dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bolalarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish hamda ijodiy faoliyat orqali shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos keladigan va ularning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladigan samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'lim mazmunining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi alohida rivojlanish sohasi sifatida ajratilib, unda tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat olib borish, o'zaro hurmat, mas'uliyat, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari belgilangan. Dasturda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida o'yin faoliyatidan foydalanish tavsiya etilgan ^[2].

G. E. Djanpeisovanning maktabgacha ta'lim metodikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida bolalarning ijtimoiy rivojlanishida o'yin faoliyatining didaktik imkoniyatlari keng yoritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, syujetli-rolli va ijodiy o'yinlar bolalarda muloqot madaniyati, hamkorlik, o'zaro yordam va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, o'yin jarayonida bolalar ijtimoiy tajribani amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradilar ^[3].

Sh. A. Do'stmuhammedova hamda hamkor mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar va ijodiy o'yinlarning samaradorligi ilmiy asoslangan. Mualliflar o'yin faoliyati bolalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuv va kommunikativ faollikni rivojlantirishini ta'kidlaydilar ^[4].

Xalqaro tadqiqotlarda ham o'yin bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi. Xususan, OECD ekspertlari tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish ekani qayd etilgan. Hisobotlarda o'yin asosidagi ta'lim bolalarda hamkorlik, muloqot va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy dalillar asosida yoritilgan ^[5].

A. V. Zaporozhetsning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o'yin ijtimoiy tajribani egalashning asosiy shakli sifatida talqin etiladi. Olim bolaning o'yin orqali atrofdagi insonlar faoliyatini aks ettirishi, ularga taqlid qilishi va ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirishini asoslab bergan ^[6].



Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy asoslari yetarli darajada yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati o'yin faoliyatining umumiy tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lib, aynan ijodiy o'yinlar vositasida ijtimoiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi, uning pedagogik shart-sharoitlari va samaradorligini baholash mezonlari hali ham chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslandi. Ushbu yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularning muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi, o'zaro munosabatlarni tashkil etishi hamda jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Tadqiqotda asosan nazariy tahlil metodidan foydalanildi. Mazkur metod orqali maktabgacha ta'lim pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va o'yin nazariyasiga oid ilmiy manbalar o'rganildi, mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi hamda ijodiy o'yinlarning bolalar ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni aniqlandi. Nazariy tahlil jarayonida olimlarning o'yin faoliyati, bolalarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy qarashlari umimlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, turli pedagogik manbalarda o'yin faoliyatining mazmuni, turlari va tarbiyaviy imkoniyatlari o'rganildi. Xususan, ijodiy o'yinlarning oddiy o'yin faoliyatidan farqli jihatlari, uning bolalar tomonidan mustaqil ravishda tashkil etilishi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishga xizmat qilishi hamda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqotda umimlashtirish va tizimlashtirish metodlari ham qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida o'rganilgan ilmiy manbalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanishning asosiy pedagogik shartlari belgilandi. Jumladan:

- o'yin jarayonida bolalarning erkin va faol ishtirokini ta'minlash;
- turli ijtimoiy rollarni bajarishga imkon yaratish;
- bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqot muhitini shakllantirish;
- ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- tarbiyachining yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi rolini ta'minlash.

Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish, umimlashtirish va pedagogik nuqtayi nazardan sharhlash asosida ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda metodik manbalar nazariy jihatdan tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ijodiy o'yinlar bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng samarali pedagogik vositalardan biri ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish uzluksiz va maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab qiladi. Ijtimoiy ko'nikmalar bolaning tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilishi, hamkorlikni yo'lga qo'yishi, o'z fikrini erkin ifoda etishi, boshqalarning fikrini hurmat qilishi, nizoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal etishi hamda jamoada faol ishtirok etishi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur sifatlarni rivojlantirishda ijodiy o'yinlar bolaga tabiiy, qiziqarli va rivojlantiruvchi muhit yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazariy manbalarning qiyosiy tahlili ijodiy o'yinlarning mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra syujetli-rolli, dramatik, konstruktiv va sahnalashtirilgan o'yinlarni o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Ushbu o'yin turlarining barchasi bolalarni o'zaro muloqot qilish, rollarni taqsimlash, umumiy maqsad sari hamkorlikda harakat qilish va mas'uliyatni his etishga o'rgatadi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlarda bolalar real hayotdagi kasblar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar.

Tahlillar natijasida ijodiy o'yinlarning ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi:

- kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish;
- hamkorlik va jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish;



- empatiya va o'zaro hurmatni rivojlantirish;
- tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash;
- nizolarni muloqot orqali hal etish malakasini rivojlantirish;
- ijtimoiy rollarni o'zlashtirish orqali ijtimoiy tajribani boyitish.

Tahlil qilingan ilmiy manbalarda ijodiy o'yinlarning samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning faoliyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Tarbiyachi bolalarning mustaqilligini cheklamasdan, o'yin mazmunini pedagogik maqsadlarga yo'naltirishi, hamkorlik muhitini yaratishi va bolalarni faol muloqotga undashi lozim. Bunday yondashuv bolalarda ijtimoiy faollikni oshirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda jamoaviy faoliyat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'rganilgan adabiyotlar asosida ijodiy o'yinlardan foydalanish samaradorligini ta'minlovchi asosiy pedagogik shartlar tizimlashtirildi. Ularga o'yin muhitining rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, o'yin mazmunining hayotiy vaziyatlarga yaqinligi, tarbiyachi tomonidan ijobiy psixologik muhit yaratilishi hamda barcha bolalarning o'yin jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritildi. O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijodiy o'yinlar maktabgacha ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular bolalarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin faoliyati orqali bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro hurmat va mas'uliyatni his etish, turli ijtimoiy rollarni bajarish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ijodiy o'yinlarning pedagogik samaradorligi, avvalo, ularning bolaning tabiiy ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga mosligi bilan izohlanishi aniqlandi. Syujetli-rolli, sahnalashtirilgan, dramatik va konstruktiv o'yinlar bolalarning nafaqat bilish faoliyatini, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik sharti sifatida baholanadi.

Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim amaliyotida ijodiy o'yinlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarur. Buning uchun tarbiyachilarning metodik kompetentligini oshirish, zamonaviy o'yin texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni aks ettiruvchi ijodiy o'yinlar mazmunini boyitish hamda bolalarning ijtimoiy rivojlanishini baholash mezonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari tizimlashtirildi va ularning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa olingan xulosalar va tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, metodistlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari o'quv va metodik faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, bolalarning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ madaniyati va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli ijodiy o'yinlarni maktabgacha ta'lim mazmuniga tizimli ravishda integratsiya qilish hamda ularni ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar asosida tashkil etish zamonaviy maktabgacha ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. - Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk qadam. Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. - Toshkent: MTV, 2022. - 236 b.
3. Djanpeisova G. E. Maktabgacha pedagogika: darslik. - Toshkent: Tafakkur, 2022. - 320 b.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>



4. Do'stmuhammedova Sh. A., Nishonova Z. T. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 312 b.
5. OECD. Starting Strong VIII: Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 224 p.
6. Запорожец А. В. Психология действия: Избранные психологические труды. – Москва: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО "МОДЭК", 2000. – 736 с.
7. Козлова С. А., Куликова Т. А. Дошкольная педагогика: учебник. – 16-е изд. – Москва: Академия, 2019. – 432 с.
8. Usmonboyeva M. H., Xoliqov A. A. Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 248 b.
9. Xasanboyeva O. U., Tojiboyeva Sh. J., Nurmuhammedova Sh. K. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023. – 400 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.